

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (26-iyun, 2026-yil).– 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

O'ZBEKISTONDA O'SIMLIKLAR XILMA-XILLIGINI SAQLASH VA TABIIY ZAXIRALARINI O'RGANISH BO'YICHA ILMIY YONDASHUVLAR

Djurayeva Mahbubaxon Doniyorjon qizi

Namangan davlat universiteti, biologiya yo'nalishi tayanch doktoranti

Email: mahbubaxondjurayeva@gmail.com

ORCID: 0009-0007-1899-6167

Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston hududida o'simliklar xilma-xilligini saqlashning ilmiy asoslari hamda tabiiy zaxiralarga ta'sir etuvchi ekologik va antropogen omillar tahlil qilingan. Respublikada mavjud flora boyligi, endem va noyob o'simlik turlarining tarqalishi, populyatsiya holati va ularning kamayishiga olib kelayotgan asosiy omillar yoritilgan. Tadqiqot davomida turli xildagi ilmiy yondashuvlarning samaradorligi baholandi hamda zamonaviy ilmiy usullar va xulosalar ishlab chiqildi. Shuningdek, tabiiy zaxiralarni barqaror boshqarish, biologik resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: o'simliklar xilma-xilligi, flora, endem turlar, antropogen ta'sir, ekologik omillar.

SCIENTIFIC APPROACHES TO THE CONSERVATION OF PLANT DIVERSITY AND THE STUDY OF NATURAL RESERVES IN UZBEKISTAN

Djurayeva Mahbubaxon Doniyorjon qizi

Doctoral student Namangan State University, department of Biology

Annotation. This article analyzes the scientific foundations of plant diversity conservation in Uzbekistan, as well as ecological and anthropogenic factors affecting natural resources. The richness of the republic's flora, the distribution of endemic and rare plant species, the state of populations, and the main factors leading to their decline are highlighted. During the study, the effectiveness of various scientific approaches was evaluated, and modern scientific methods and conclusions were developed. Practical recommendations were also provided for the sustainable management of natural resources, the rational use of biological resources, and the improvement of the protection system.

Keywords: plant diversity, flora, endemic species, anthropogenic impact, environmental factors.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i12/n04>

Kirish. O'simliklar xilma-xilligi biosferaning barqaror faoliyatini ta'minlovchi asosiy komponent bo'lib, ekotizimlarning funksional yaxlitligi, moddalar almashinuvi, tuproq hosil bo'lishi va iqlimni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. O'simliklar insoniyat uchun oziq-ovqat, dorivor xomashyo, sanoat resurslari va ekologik xizmatlar manbai hisoblanadi. So'nggi o'n yilliklarda global iqlim o'zgarishi, antropogen bosimning ortishi, yer resurslaridan noto'g'ri foydalanish, urbanizatsiya va sanoatlashtirish natijasida o'simliklar xilma-xilligi sezilarli darajada kamayib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha o'simliklar turlarining muhim qismi yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lib, bu jarayon ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha o'simlik turlarining muhim qismi yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lib, bu jarayon ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda [1; B.6-12.]. Shu sababli o'simliklarning tabiiy zaxiralarini o'rganish, ularni muhofaza qilish va barqaror boshqarish dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. O'zbekiston hududi Markaziy Osiyoning floristik jihatdan boy

mintaqalaridan biri bo'lib, unda 4500 dan ortiq yovvoyi o'simlik turlari uchraydi. Ularning sezilarli qismi endem va relik turlar bo'lib, ular asosan tog'li hududlar, cho'l va adir zonalarida tarqalgan. Xususan, Farg'ona vodiysi, Hisor tizmalari, Chotqol va Zarafshon hududlari o'zining yuqori biologik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, respublikada dorivor va iqtisodiy ahamiyatga ega o'simliklar keng tarqalgan bo'lib, ular tabiiy resurs sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Biologik xilma-xillik- bu tirik organizmlar, jumladan, o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar va ular yashaydigan ekotizimlarning rang- barangligidir. Ushbu boyluk inson hayoti, oziq-ovqat xavfsizligi, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va ekologik muvozanat uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli O'zbekistonda o'simliklar xilma-xilligini saqlash va tabiiy zaxiralarni o'rganish O'ZR FA Botanika instituti va Ekologiya vazirligi tomonidan olib boriladi. Ilmiy yondashuvlar zamonaviy texnologiyalarni (molekulyar filogeniya, GIS xaritalash) an'anaviy floristika, geobotanika, resursshunoslik hamda davlat kadastrini yuritish bilan uyg'unlashtiradi. Bu usullar o'simliklarning tarqalish arealini aniqlash, populyatsiya holatini baholash va ekologik omillarning ta'sirini chuqur tahlil qilish imkonini beradi [2; B. 9-10].

Material va uslublar. Bugungi kunda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'simliklar xilma-xilligini saqlashning asosiy yo'nalishlari sifatida in situ va ex situ muhofaza usullari keng qo'llanilishi ta'kidlanadi. In situ va ex situ usullari biologik xilma-xillikni saqlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda qo'llaniladigan asosiy strategiyalardir. In situ usulida o'simliklar o'z tabiiy yashash muhitida saqlanadi, bu esa populyatsiyaning tabiiy evolyutsiyon jarayonlarini davom ettirish imkonini beradi. Qo'riqxonalar, milliy bog'lar va buyutmaxonalarni tashkil etish orqali o'simliklarni o'zlarining tabiiy o'sish muhitida saqlash. Ex situ usuli esa o'simliklarni botanik bog'lar, urug' banklari va laboratoriya sharoitida ko'paytirish orqali ularning genetik fondini saqlashga qaratilgan. Nodir va yo'qolib borayotgan turlarning urug'lari, hujayralari va DNK sini maxsus muzlatkichli gen-banklar hamda botanika bog'larida saqlash.

Bundan tashqari tabiiy ofatlardan o'simliklar tabiiy resurslari kadastri yordamida zaxiralarni xatlovdan o'tkazish, yem-xashak va dorivor o'simliklarning miqdorini aniqlash hamda ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish. Buzilgan o'simlik qatlamini tabiiy o'simlik resurslarini tiklash tamoyillari asosida qayta tiklash, o'rmonlarni qayta barpo etish va yong'in yoki ortiqcha antropogen ta'sirlardan so'ng ekotizimni muvozanatga keltirish kabi usullardan foydalanishimiz zarur.

Natijalar va tahlil. O'zbekiston hududida o'simliklar xilma-xilligini saqlash va tabiiy zaxiralarniboshqarish bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublika florasi tur tarkibi va genetik resurslarining boyligi bilan Markaziy Osiyodagi muhim floristik markazlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, G'arbiy Tyanshan, Hisor-Olay tog' tizimlari va Farg'ona vodiysi biologik xilma-xillikning muhim markazlari hisoblanadi. Tog'li hududlarda biologik xilma-xillik darajasi nisbatan yuqori bo'lsa, cho'l va adir zonalarida antropogen bosim natijasida ayrim turlar sonining kamayishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, dorivor o'simliklardan muntazam va nazoratsiz foydalanish ularning tabiiy populyatsiyalariga sezilarli zarar yetkazmoqda.

Tadqiqotlar natijasida o'simliklar tarqalishi va populyatsiyalarining iqlim omillari muhim ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Haroratning oshishi, yog'in miqdorining notekis taqsimlanishi va qurg'oqchilik davrlarining uzayishi ayrim turlarning vegetatsiya davri va arealiga salbiy ta'sir qilmoqda. Tog' ekotizimlarida qor qoplami muddatining qiqarishi namlik

rejimining o'zgarishiga olib kelmoqda. Natijada namsevar o'simlik turlari populyatsiyasida qisqarish, qurg'oqchilikka chidamli turlar ulushida esa ortish kuzatilmoqda. Ayrim hollarda iqlim o'zgarishi o'simliklarning gullash va urug' hosil qilish muddatlarining siljishiga sabab bo'lmoqda. O'simliklar tabiiy zaxiralarni boshqarishda quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi: tabiiy populyatsiyalar monitoringini muntazam olib borish, GIS texnologiyalari asosida tarqalish xaritalarini yaratish, dorivor o'simliklarni madaniylashtirish va plantatsiyalar tashkil etish, degradatsiyaga uchragan hududlarni qayta tiklash, mahalliy aholi o'rtasida ekologik madaniyatni oshirish, noyob va endem turlarni sun'iy ko'paytirish dasturlarini kengaytirish kabilar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston o'simliklar tabiiy zaxiralarni barqaror boshqarish bo'yicha katta salohiyatga ega. Ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, muhofaza choralarni takomillashtirish va xalqaro tajribalarni amaliyotga joriy etish biologik resurslarning uzoq muddatli saqlanishi hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Mzkur tadqiqot natijalari o'simliklar xilma-xilligini muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kristina Toderich, Munimjon Abbdusamatov, Tsuneo Tsukatani. "Water resources assessment, irrigation and agricultural developments in Tajikistan" 2025, doi: <https://core.ac.uk/download/pdf/6719797.pdf>
2. Tojibaev, K.Sh., Beshko, N.Yu., Karimov, F.I. va boshqalar. O'zbekiston florasining zamonaviy holati va biologik xilma-xilligi masalalari. Toshkent,2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi.I jild: O'simliklar. Toshkent: Chinor ENK, 2019. 356 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti. O'zbekiston florasini va o'simlik resurslari bo'yicha ilmiy to'plamlar. Toshkent, 2018-2024.
5. O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. Biologik xilma-xillikni salohiyatini ta'minlash bo'yicha milliy strategiya va harakatlar rejasi (NBSAP). Toshkent, 2024.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, 26-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (iyun, 2026-yil). – 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.